QORAXONIYLAR DAVLATINING MADANIY HAYOT

Toshtemirova Sevinch Jasur qizi – QarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatida ilm-fan, adabiyot va me'morchilikning rivojlanish bosqichlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, bu davrda yaratilgan turkiy yozma adabiyot namunalari, ilm-ma'rifatning rivojlanishiga hissa qo'shgan allomalar faoliyati va bunyod etilgan me'moriy obidalar tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Qoraxoniylar davrining madaniy merosi va uning keyingi davrlardagi ilmiy hamda ma'naviy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar davlati, ilm-fan taraqqiyoti, turkiy adabiyot, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit turk, Burana minorasi, O'zgand me'moriy majmuasi, islom madaniyati, me'moriy meros.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития науки, литературы и архитектуры в государстве Караханидов, а также их значение в общественном развитии. Особое внимание уделено памятникам тюркской письменной литературы, деятельности выдающихся ученых, внесших вклад в развитие науки и просвещения, а также архитектурным сооружениям, возведенным в этот период. На основе исторических источников раскрывается культурное наследие эпохи Караханидов и его влияние на последующее научное и духовное развитие.

Ключевые слова: государство Караханидов, развитие науки, тюркская литература, Юсуф Хас Хаджиб, Махмуд Кашгари, «Кутадгу билиг», «Диван лугат ат-тюрк», минарет Бурана, архитектурный комплекс Узген, исламская культура, архитектурное наследие.

Abstract: This article examines the stages of development of science, literature, and architecture in the Karakhanid State and their role in the progress of society. It also highlights the Turkic literary works produced during this period, the activities of prominent scholars who contributed to the advancement of science and

education, and the architectural monuments built based on historical sources. Furthermore, the study reveals the cultural heritage of the Karakhanid era and its influence on the scientific and spiritual development of later periods.

Keywords: Karakhanid State, development of science, Turkic literature, Yusuf Khass Hajib, Mahmud al-Kashgari, Kutadgu Bilig, Dīwān Lughāt al-Turk, Burana Tower, Uzgen Architectural Complex, Islamic culture, architectural heritage.

Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xos an'analar paydo bo'lgan. Bir tomondan yangi shaharlarning paydo bo'lishi hisobiga mamlakatdagi shaharlar soni ko'paygan. Ikkinchi tomondan, katta qurilishlar bo'lgani tufayli mavjud shaharlarning ko'rkamligi oshgan va doirasi kengaygan. Uchunchi tomondan, zodagonlarning, boylarning va savdogarlarning go'zal imoratlari bilan to'lgan ko'chalar qatorida, uylar zich joylashgan daraxtsiz tor ko'chalar paydo bo'lgan. Katta shaharlar ichki shahar (shahriston), shahar chekkasi va tashqarisi kabi qismlarga ajratilgan. Shahar aholisining joylashuvi ham ularning iqtisodiy holati bilan bog'liq bo'lgan. Yirik shaharlar, jumladan Samarqand aholisi nufuzi 500 mingta etgan. Shaharlarda ichki va xalqaro savdo ishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

XI asrning birinchi yarmida Qoraxoniylar xoqonligi ijtimoiy hayotining izdan chiqishi kuzatildi. Bu og'ir hodisa elikxon va iqto tizimi yo'lga qo'yilgan Turkiston hududida ayniqsa sezilarli bo'ldi. Shartli bo'lgan iqto yerlar xususiy mulkka aylanib, qoraxoniylar xonligining bu yerlarga bevosita egalik qilish huquqi yo'qoldi. O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo mamlakatlariga xos bo'lgan salbiy omillar Qoraxoniylar xoqonligini inqirozga uchratadigan siyosiy kuchga aylanib, barbod bo'lishini tezlatgan. X asrning oxirlarida qoraxoniylar sulolasi ko'p urushlar bo'lganiga qaramay mamlakatning madaniy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhit yaratgan. Iqtisodiy munosabatlarda qoraxoniylar davrida ham dehqonchilik ishlari o'z maromida kechgan. Bunga, albatta, sun'iy sug'orish tizimlarining talab darajasida ishlab turishi, lozim bo'lganda ularni ta'mirlash ishlarining amalga

oshirilishi, yer osti, yer usti quvurlarining o‘tkazilishi, kanallar, suv omborlari, to‘siqlarning bunyod etilishi hamda yo‘llar, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida dehqonchilik an’anaviy yuqori darajada bo‘lganligi orqali erishilgan. Ilgaridan dehqonchilikning barcha asosiy turlari yetishtirib borilgani ham ma’lum. Tadqiq etilayotgan davrda konchilikdagi sa’y-harakatlar ham susaymagan. Chunonchi, Ohangaron atrofida (Qoramozor) mis, kumush, qo‘rg‘oshin konlari, Farg‘onada oltin, simob, kumush, temir, mis, feruza, nashadil, neft, kuporos, qatron, Nurota tog‘larida oltin, mis, qo‘rg‘oshin, simob, marmar, Buxoro, Surxondaryoda oltin, neft, feruza, temir konlari ishlab turgan. Dehqonchilik va tog‘-kon ishlab chiqarishida faol bo‘lgan bir muhim soha – hunarmandchilikni ham jonlantirib turgani tabiiy, albatta. Shuning uchun temirchilik, kulolchilik, shishasozlik (oynasozlik), zargarlik, to‘quvchilik, ko‘nchilik kabi o‘ttizdan ortiq sohalar rivojlanib borgan. Masalan, shishasozlikda ishlab ishlangan buyumlar (oshxona buyumlari, jihozlari, bezak-taqinchoqlar, siyohdon, tuvak va boshqalar) turli rangda jilo berish rasm bo‘lganini bilamiz. Bu, albatta, o‘z davri uchun katta yutuq. Bundan tashqari imoratlarni bezash, jihozlashda shishasozlikning imkoniyatlaridan kengroq foydalanilgan. Chunonchi, ularga o‘rnatilgan oynalar ham rangli, ham rasmli bo‘lishi mumkin edi. Panjaralar oralig‘iga turli rangli shishalardan o‘rnatib, imorat ko‘rkinii ochish harakat qilinganini ham eslatib o‘tish joizdir. [1]

To‘qimachilik to‘g‘risida so‘z yuritilganda, avvalo shuni alohida qayd etish kerakki, bu borada Buxoro, Samarqand viloyatlari peshqadamlikni qo‘ldan bermaganlar. Paxtadan to‘qilgan turli xildagi gazlamalar ham mintaqada, ham xorijiy o‘lkalarda mashhur bo‘lgan. Ko‘nchilik mahsulotlaridan esa manbalarda olmaxon, sobol va boshqa hayvonlar terisidan po‘stin (ichuk), charmdan ishlangan oyoq kiyimlari (izlik), tuya va qo‘y junidan to‘qilgan issiq kiyim (kars), guldor

[1] Хўжаев А., Турдиева Д. Қорахонйлар хоқонлиги тарихи: Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. – Т.: “Фан зиёси”, 2021. – Б.71.

namatlar va boshqalar tilga olinadi. Ko‘nchilikda eng nozik ishlardan hisoblanmish mo‘ynani tuktirishga arzuat nomli aralashmadan foydalanilganligini Mahmud Koshg‘ariy asaridan ham bilib olish mumkin. Bundan avval ham ko‘rilganidek, dehqonchilik, hunarmandchilikdagi bir tekis ravnaq savdo-sotiq ishlarini jadallashtirib borishida muhim ahamiyat kasb etgan. Qoraxoniylar davriga kelib Sharqiy Turkistondan Xorazmgacha bo‘lgan katta hududning siyosiy jihatdan birlashishi savdo-sotiq ishlarida mintaqaning sharqiy viloyatlari imkoniyatlarini yuzaga chiqarish sharoitini yaratib berdi. Chunonchi, biz bugun “Ipak yo‘li” deb biladigan savdo yo‘li turlidan-turli Sharqiy Turkistonning arab o‘lkalari bilan tutashtirib turgan. U davrda bu yo‘lning bir uchi Xitoydan boshlanib Sharqiy Turkiston, Farg‘ona, Toshkent, Zarafshon vodiysi, Buxoro orqali shimolga Volga bo‘ylab vositasida Sharqiy Yevropaga, janubda esa O‘rta Sharq orqali O‘rta dengizgacha borgan. Yo‘l uzra joylashgan shahar va qishloqlarda bozorlar, karvonsaroylar ta’mirligi va orastaligi, umuman, savdogarlarga xizmat ko‘rsatib, shu orqali foyda ko‘radigan turli xizmatlarni muhayyo etishga katta e’tibor berilgan. Muntazam ravishda turli yerlarda savdo ko‘rgazmalari uyushtirilib turilgan. Muntazam ravishda turli yerlarda savdo ko‘rgazmalari uyushtirilib turgani haqida ham ma’lumotlar bor.[2]

Qoraxoniylar davridagi qurilish ishlariga nazar tashlansa shu narsa ayon bo‘ladiki, Buxoroda Minorai Kalon, qator masjidlar, Jarko‘ton (Surxondaryo), Vobkentda minoralar, O‘zganda maqbaralar, minora, masjidlar, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Qoraxoniy hukmdorlar savob ishlardan ham qochmaganliklari haqida ma’lumotlar bor. Chunonchi, qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr 1066-yili Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyini taqdim (vaqf) etgan. Hujjatdan anglashilishicha, ana shu ikki karvonsaroydan keladigan daromaddan kasallarning oziq-ovqati, dori-darmoni, tabiblar, ularga turdagi xizmat ko‘rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta’minlash

[2] Асқаров А., Мақсудов Ф.А., Пидаев Ш.Р. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. VIII-қисм. –Т.: “Маънавият”, 2023. – Б.161

yo‘lida foydalanilgan. Boshqa bir hujjatda Samarqandda bunyod etilgan madrasa mazmunini ta’minlash uchun Ibrohim ibn Nasr uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergani haqida guvohliklar mavjud. Qoraxoniylar davrida ham ko‘plab iste’dod egalari yuzaga chiqqan. Shulardan yuqorida nomlari tilga olingan Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg‘ariy haqida to‘xtalib o‘tsak. Chuqur bilim va tafakkur egasi Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (“Saodatnoma”) asari bilan mashhurdir. Zero, bu asarda davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid o‘z davri uchun zarur va foydali, tarixan o‘z ahamiyatini yo‘qotmovchi fikrlar ilgari surilgan. Chunonchi, u jamiyatning to‘rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aqlu zakovat, qanoat. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu to‘rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta’minlashda ilm birinchi o‘ringa qo‘yiladi: “O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar, Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar”. E’tibor bersak, asarda keltirilgan davlat-idora kishilari haqidagi fikrlarni olaylik. Vazirlar oqil, dovyurak, imonli, nomusli bo‘lishlari kerak. Beklar, ya’ni hokimlar esa bilimli, yetuk, ko‘zi, ko‘ngli to‘q bo‘lmog‘i darkor. Agar ular buzuq fe’lli bo‘lsalar, zamona izdan chiqib ketadi, ulardan odamlar ham yuz o‘giradi, hamda g‘iriftor bo‘ladilar. Yusuf Xos Hojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: “Oilasidagi evning vahimasidan qo‘rqma, aksincha, undan yaqindan voqif bo‘lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dardga kelib dush qilsa, bardoshli bo‘l, chekinma (chunki u bu bilan seni sinamoqchi)”. “Qutadg‘u bilig”da olimlar, shoirlar, dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar haqida, oila, farzand tarbiyasiga oid hikmatli fikrlar ham o‘rin olgan. Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zidan ajoyib va bebaho meros qoldirgan. Bu uning turkiy tillar va ma’lum ma’noda turkiy tilli xalqlar haqidagi qomusiy asari “Devonu lug‘ot at-turk”dir. Asar Turkiston xalqlarining tillari tarixini o‘rganishda, chunonchi, o‘sha davr tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi, etimologiyasini o‘rganishda benazir manba hisoblanadi. Bundan tashqari, unda mintaqa xalqlarining etnik tarixiga oid g‘oyatda

qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ma'lumki, turkiy tilli xalqlar ham son jihatdan ko'p, ham serqirra bo'lib kelganlar. Ular o'rtasidagi munosabatlar tarixini yoritishda "Devonu lug'ot at-turk"ning ahamiyati katta. Bundan tashqari asarda davlatchilik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, hunarmandchilik, rasm-rusumlar, madaniy hayotga tegishli ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Mahmud Koshg'ariy asarining qimmatli tomonlaridan yana biri unda muallif chizgan dunyo xaritasining mavjudligidir. Xarita doira shaklida va uning har tarafdan suv bilan o'ralganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud. Xaritada markazda Ettisuv, Sharqiy Turkiston hududi joylashtirilib, uning to'rt taraf yo'nalishida turli shaharlar, mamlakatlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, tog'lar joylashuvi berilgan. Umuman olganda, bu asar bashariyat madaniy ravnaqi yo'lini o'rganishda nodir manba hisoblanadi. [3]

Xulosa qilib aytganda, Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, adabiyot va me'morchilikning yuksalishida muhim o'rin tutgan. Bu davrda islom madaniyati va turkiy an'analar uyg'unlashib, ilmiy hamda madaniy taraqqiyot uchun qulay muhit shakllandi. Natijada turli fanlar rivojlandi, madrasalar faoliyati kengaydi va ko'plab olim hamda ijodkorlar yetishib chiqdi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy tilda yaratilgan asarlar milliy adabiyotning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, davlat tili va adabiyotining rivojlanishi keyingi davrlardagi turkiy xalqlar madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, bunyod etilgan masjidlar, maqbaralar, minoralar va boshqa me'moriy obidalar davr me'morchilik san'atining yuksak namunalariga aylandi. Qoraxoniylar davlati nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki ilmiy, adabiy va me'moriy merosi bilan ham O'zbekiston hamda butun Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin egallaydi. Ushbu boy madaniy meros bugungi kunda ham xalqimizning milliy qadriyatlari va ma'naviy taraqqiyotining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожи Нурхажи. Қадимги уйғурулар ва Қорахонийлар. — "Урумчи", 2001.

[3] 1 Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилги тарихи. –Т.: "Шарқ нашриёти", 2026. –Б.108-109.

2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилги тарихи. –Т.: "Шарқ наширёти", 2001.

3. Хўжаев. А ва Турдиева. Д. Қорахонйлар хоқонлиги тарихи: Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. — Тошкент.: " Фан зиёси " 2021.

4. Асқаров А., Мақсудов Ф.А., Пидаев Ш.Р. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. I-қисм. –Т.: "Маънавият", 2023.